

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
**FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.G.Sabirdinov**

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy ..... 6

**G.M.Oripova**

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri ..... 9

**M.A.Jo'rayeva**

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri ..... 13

**G.Muhammadjonova**

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok ..... 17

**И.А.Эшонкулов**

Tavsiysi mushahhasi tazkiiraҳoi Ҳашмати Бухорай ..... 21

**B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova**

“Bobotog”essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik ..... 28

**И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова**

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий ..... 34

**D.T.Musayeva**

Elizabet Gaskell ijodiga nazar ..... 39

**Н.Н.Қаюмов**

Muammo shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик ..... 42

**Sh.T.Ibragimov**

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi ..... 47

**J.T.Ibragimov**

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza ..... 55

**A.A.Akbarov**

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi ..... 61

## TILSHUNOSLIK

**Sh.M.Iskandarova**

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun ..... 66

**Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова**

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок ..... 71

**Z.V.Alimova**

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida ..... 81

**A.B.Uralov**

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar ..... 86

**Z.A.Davlataliyeva**

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari ..... 90

**Н.А.Абдуллаева**

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках ..... 95

**Н.А.Отахонова**

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой ..... 100

**B.B.G'apporov**

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi ..... 106

**D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova**

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili ..... 112

**N.Fidan**

Ellipsis in English text linguistics ..... 115

**M.O.Qulmamatova**

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari ..... 120

**N.X.Boboqulova**

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili ..... 124



УО'К: 82.94 : 82.091

**HAYOT HAQIQATI, TARIXIY HAQIQAT VA BADIY IDROK****ИСТИНА ЖИЗНИ, ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ЗАМЫСЕЛ****LIFE REALITY, HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC PERCEPTION****Muhammadjonova Go'zalxon** 

Farg'onan davlat universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

*Maqolada hayot haqiqati va tarixiy haqiqat asosida badiiy haqiqat yaratish usul hamda vositalari tadqiq etilgan. Xususan, hayot haqiqati kontekstida ijod materiali vizual, eshitish, his etish, ta'm va hid bilish orqali yig'ilib borishi hamda uning badiiy talqinka aylanishida muallif konsepsiyanining roli ochiqlangan. Tarixiy asarlar, adabiy-tarixiy manbalar, me'moriy obidalar, hududiy-jug'rofik kuzatishlar, arxiv materiallari, zamondoshlar xotirasi va suhbatlar hamda realiya(madaniyatga xos moddiy elementlar)ning tarixiy haqiqat manbalari sifatida badiiy asar kompozitsiyasidagi vazifasi oydinlashtirilgan.*

**Аннотация**

В статье поясняется характеристика сбора материалов первоисточников для создания художественной правды из реальной действительности путем сравнительной классификации истины жизни и исторической правды. В частности, обоснован сбор материала посредством визуального наблюдения, осязания, слуха, вкуса и запаха. В качестве изучения источников исторической правды служат исторические труды, литературно-исторические произведения, памятники истории, рубежно-географические наблюдения, архивные материалы, воспоминания и беседы с современниками, наблюдения относящиеся к реалии, которые проясняют роль в создании художественного замысла.

**Abstract**

*The article investigates the methods and means of constructing artistic truth on the basis of life reality and historical truth. It specifically emphasizes how creative material is accumulated through visual, auditory, tactile, gustatory, and olfactory perceptions within the context of life experience, and the role of the author's concept in transforming this material into artistic interpretation. Furthermore, the study clarifies the function of historical works, literary-historical sources, architectural monuments, regional-geographical observations, archival documents, contemporary memoirs and interviews, as well as cultural realia as sources of historical truth within the structure of a literary work.*

**Kalit so'zlar:** hayot haqiqati, badiiy haqiqat, badiiy mahorat, tarixiy shaxslar, prototip, tarixiy shaxslar obrazi, estetik ideal

**Ключевые слова:** истина жизни, художественная правда, художественное мастерство, исторические личности, прототип, образы исторических личностей, эстетический идеал

**Key words:** life reality, artistic truth, artistic mastery, historical figures, prototype, image of historical figures, aesthetic ideal.

**KIRISH**

So'z san'atida hayot haqiqati, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima muhim omil hisoblanadi. Nafaqat tarixiy asarlar, balki barcha janr va mavzudagi asarlarda hamda ijodkorning ijod laboratoriyasida ular birdek ahamiyatga molik. Yuksak san'at asarining yuzaga kelishida poydevor vazifasini bajaruvchi ushbu omillar tasvirlangan davr ruhiyatini berishda, qahramonlar xarakteri, ruhiy olami ifodasida, muallif konsepsiyasini ilgari surishda polifunktionallik kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR**

Ayni mavzu doirasida talay ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, tarixiy romanlar, tarixiy asarlar tadqiqli bilan bog'liq izlanishlarda mazkur masala anchayin keng yoritiladi[1]. Mazkur tadqiqotlarda tarixiy asarlarni, tarixiy va buyuk tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish mahorati, faktik material va manbalar bilan ishlashda ularga xolislik tamoyillari asosida yondashish masalalari tadqiq etilgan. Ammo ularda ushbu masala asosan tarixiy mavzudagi badiiy asarlar misolida va tarixiy shaxslar obrazining xolislik tamoyillariga ko'ra tadqiqli doirasida o'rganilgan. Ijod

laboratoriyasida hayot haqiqati va tarixiy haqiqatning tajassum topib borishi va uning shakllanish manbalarini chucherroq tadqiq etish esa dolzarb masalalardan biridir.

Hayot haqiqati va badiiy to'qima masalasini yoritishda tasvifiy-tasnifiy usul, germenevtik va sotsiologik metodlarga murojaat etildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Haqiqat – arabcha, chindan ham bo'lgan voqelikka mos holat, bor narsa; haqiqiy ahvol[2]. **Hayot haqiqati** kengroq tushunchani ifodalab, tarix va zamonaviylikni qamrab oladi. Ya'ni hayot haqiqati deganda real hayotdagи voqelik, holatlар, insonlar, ijtimoiy munosabatlar, qarashlar, tabiat, umuman, borliqning namoyonligi tushuniladi. Uning manbalari sifatida nafaqat tarixiy-madaniy meroslar, hujjatlar, balki muallifning shaxsiy kuzatishlari asosida olamning idrok etilishi, uning va o'zga shaxslarning xotiralari, hamsuhbatlik taassurotlari v.b. tushuniladi. "Hayot haqiqatini obrazlarga singdirish adib iste'dodining darajasi va miqyosidan dalolat beradi"[3]. Hayot haqiqatida kuzatish muhim ahamiyatga ega.

#### *Kuzatish orqali material yig'ish manbalari:*

1. *Vizual holatda*. Ko'z xotirasasi orqali zarur materiallarni yigish, saralash, tanlash, xotirada saqlab qolish. Ulardagi hissiy emotsiyani his etish, shu hissiy ta'sirni jonlantirish. Masalan, tabiat tasviri, insonlar siyemosidagi hissiy ifodalar, jonzotlardagi hissiyot ifodalarini kuzatish va ko'z xotirasida saqlab qolinishi. Vaqt kelganda u badiiy haqiqatning muhim muruvvatiga aylanadi.

2. *Eshitish orqali*. Insonlar suhbatlarini, o'zgalarning nutqlarini tinglash orqali dialog va nutqiyo xoslanish uchun material yig'ish. Mayin kuy, ohang, turli fizik tovushlar xususiyatini badiiyatga xizmat qildirish uchun hissiy anglash va ijodiy ishlash. Masalan, "Ikki eshik orasi" romanida Qora ammadan g'ayriixtiyoriy tarzda hushtakka o'xshash ovozning chiqib turishi; Solih Mahdum nutqidagi "habba" so'zi("Mehrobdan chayon"); "Yo'qolmasdan avval bormidi" ("O'g'ri").

3. *His etish orqali*. Tabiat go'zalligini, ijtimoiy munosabatlar mohiyatini, psixofiziologik holatlар (suzish, uchish, kuchli qo'rquv, yomg'irda ivib qolish, shamolga qarshi yugurish v.b.)ni his etish orqali sezimlar tasvirini ta'sirli ifodalash. Masalan, Isajon Sulton asarlarida shamol detal, obraz, ramz, motiv sifatida polifunktionallik kasb etadi. Ularning badiiy-estetik funksiyasi esish darajasiga qarab ham turlanadi. Shabada, nasim, el shamoldan, shamol esa bo'ron, to'fondan shiddatiga ko'ra qator farqli ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Isajon Sulton suhbatlarda ham ko'p ta'kidlaganidek, Qo'qon shamoli uning bolalik xotirasiga o'zgacha o'rashib qolgan. Unga qarshi yurish, ovozlarini quloq ostida his etish holati o'zgacha. Jumladan, "Shamolli kecha" hikoyasidagi singlisini yo'qotib qo'ygan bolaning ruhiy holatini ifodalashda shamol ayricha badiiy-estetik vazifa bajargan. Hatto taqdирга isyondek bolaning qo'lida o'ynagan xivichning shuvilloq ovozi ham hayot lavhalarining badiiyatga aylanishidir. Muallif bu holatni o'z tengqurlari misolida ko'p bor kuzatgani, o'zi ham bu ishni o'yin misolida g'ayriixtiyoriy amalga oshirgani, shubhasiz. Va bu holatni taqdir shamoli, sinovlari qarshisida murg'ak vujudi, bola qalbi bilan isyonkorona kurashib kelayotgan bolakayning ruhiy dunyosini yoritishda juda o'rinli qo'llab, unga katta poetik ma'no yuklay olgan.

4. *Ta'm bilish orqali*. Taomlar, o'simlik va mevalar, umuman, ta'm bilish xotirasidagi materiallar bilan ish ko'rish. Misol uchun, "Dunyoning ishlari" (O'.Hoshimov) asarida talqon episodi, "Tuzli qahva" (Senan Demerji) asaridagi dengizning sho'r suvi va tuzli qahva ta'mi bilan bog'liq badiiy talqinlarni olish mumkin.

5. *Hid bilish orqali*. Turli hidlarning xususiyatiga qarab voqelik va tafsilotlarda qo'llash. M: Rayhon, qalampirmunchoq, tamaki tutuni ("Ikki eshik orasi"), bo'rsiq yog'i ("Jannati odamlar"), non, bo'yoq ("Rang va mehvvar" – Asad Dilmurod ; "Oy va sariq chaqa" – Somerset Moem), yalpiz hidi, bola hidi ("Bahor qaytmaydi" – O'.Hoshimov) v.b. Misol uchun, "Ikki eshik orasi" romanida Muzaffarning bolalik xotiralari achchiq tamaki tutuni va otasining ko'ksidagi urushdan qolgan chandiqni o'ynab yotganidagi lavhalardan iborat. Urush tufayli bolaligidan, to'kis oila ne'matidan ayrilgan Muzaffarning qalb izhori ana shu ikki detal vositasida aniq va lo'nda, goyat ta'sirli ifodalangan.

Har bir ijodkor sinchkov kuzatuvchidir. U hissiy anglamlar orqali ham o'z asarlari uchun materiallar zahirasini umri mobaynida yig'ib boradi va ularni zarur o'rinda o'z qahramonlari taqdiri, xarakterini ochib berishda, hissiyotlar taftini berishda qo'llaydiki, bu holatlar kitobxonlar uchun ham begona bo'limgani bois yozuvchi – asar – kitobxon uchligida hissiy ta'sirlanishlar yuzaga keladi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**Tarixiy haqiqat** masalasiga asosan tarixiy mavzularga murojaat jarayonida duch kelinadi. Adabiyotda tarixiylik biror davrning konkret tarixiy mazmunini, uning takrorlanmas qiyofasi va koloritini badiiy jonlantirib tasvirlash[4] dir. Tarixiy haqiqat bo'lib o'tgan voqeliklarning tafsiloti, aniq ma'lumotlarga asoslangan manbalarni qamrab oladi. Ayniqsa, muhim tarixiy davrlar va sanalar, jang va xalq qo'zg'olonlari, buyuk tarixiy shaxslarning hukmronlik yillariga xos jihatlar, buyuk tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga oid faktik ma'lumotlar nazarda tutiladi. Xususan, tarixiy shaxslar – Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Cho'pon v.b. obrazlarini yaratishda bu kabi ma'lumotlarni xolislik va haqqoniylilik tamoyillariga ko'ra badiiy haqiqatga yo'naltirish mas'uliyat, bilim va mashaqqatli mehnatni taqazo etadi. Tarixiy ma'lumotlarni ayni davr ko'zi bilan qarash, o'sha davr nuqtayi nazaridan yondashish va baho berish, shuning barobarida bugungi ijtimoiy hayot va tafakkur tarziga sintezlash yozuvchining salohiyatini ko'rsatib beradi. Tarixiy ma'lumotlarga obyektivlik va subyektivlik muvozanatini saqlagan holda xolislik tamoyillari asosida yondashish va uni badiiy haqiqatga aylantirishda haqqoniylilik mezonlarini saqlash tarixiy mavzudagi badiiy asarlarga qo'yilgan asosiy talabdir.

**Tarixiy haqiqatni o'rganish manbaları:**

1. *Tarixiy asarlar* Tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan tarixiy manbalar (H.Vamberi, Davlatshoh Samarqandi, Sharafiddin Ali Yazdiy v.b.).

2. *Adabiy-tarixiy manbalar*. Avtobiografik xususiyat kasb etuvchi adabiy asarlar, memuarlar. Z.M.Boburning "Boburnoma" asari, Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Oybekning "Bolalik", H. Qodiriyning "Otam haqida" v.b. asarlar.

3. *Tarixiy inshoot va binolar, me'moriy obidalar*. Xususan, ko'hna tarixiy Tojmahal, Sherdor, Registon, Buxorodagi Ark, Ichon qal'a, Qo'qon xoni o'rdsasi kabilar qator tarixiy asarlarda batatsil tasvirlanadi yoki ma'lum poetik maqsadni ko'zlagan holda qalamga olinadi. Mirmuhsinning "Me'mor" romanida tarixiy inshootlar tasviri, qurilish sir-asrорlariga doir ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mualliflar asarga qo'l urishdan avval bu boradagi tarixiy ma'lumotlarni obdon o'rgangan va hozirgi holatini kuzatgan bo'lishlari tabiiy. Tarixiy romanlar muallif P.Qodirov Z.M.Bobur va boburiylar sulolasi tarixini yoritar ekan, Hindiston shahar va ko'chalarini kezganligini, "Boburnoma"da tilga olingen hududlarni imkon qadar o'rganganligini adabiy suhbatlarda alohida ta'kidlagan.

4. *Hududiy-jug'rofik kuzatishlar*. Yil fasllaridagi kuzatishlar, qir, adir, tog', dasht, cho'l, o'rmon, tarixiy jang maydonlari v. h.larni o'rganish ham ijodning bir qismi. Birinchi o'zbek romani "O'tkan kunlar"ning qimmati, qayta-qayta tadqiqot obyekti bo'lishining sabablaridan biri ham haqqoniyligidir. H. Qodiriyning xotirlashicha, asarni yozish uchun adib Marg'ilon shahri ko'chalarini, tabiatini, insonlarini, qadriyatlarini chuqur o'rganadi. Hatto tabiatni kuzatar ekan, daraxtlar soni, shakli, qanchasi eski, yangiligi, unga qanday qushlar qaysi xilda qo'nib turganligi va ularning xonish ohangi, qay bir xonadondan chiqqan dog'langan zig'ir yog'inining hidi kabi mayda detallar yig'ilib asarga hayotiylik, haqqoniylilik va o'zgacha pafos bergan.

Buyuk hukmdorlar haqidagi asarlarda jang sahnalari, muayyan hududning tuzilishi mualliflar tomonidan borib o'rganilishi asosida badiiy lavhalardan o'rinn olgan. Xullas, o'rinn-joy tasvirini kuzatish ta'sirli tarixiy lavhalar yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda muallifning estetik didga ko'ra saralab, ularni badiiy idrok etishi esa mahoratning sifatlaridir.

5. *Arxiv hujjatlari*. Yaqin tarixni yoritishda arxiv materiallari alohida ahamiyatga ega. Jamoalashtirish siyosati, "paxta ishi", jadidlar hayoti, qatag'on siyosati, sovet davri mafkurasi v.h. bilan bog'liq tasvirlarda mualliflar arxiv hujjatlariha ham tayangan holda ish ko'radilar. Bu borada aniq haqiqatni ko'rsatish uchun muallif kunlab, oylab arxiv hujjatlari bilan ishlashi mumkin. Arxiv hujjatlari bilan ishlashda shoshma-shosharlik, obdon o'yamasdan xulosa chiqarish va uni badiiy talqin etish yaramaydi. Chunki bu kitobxonlar tafakkurida noto'g'ri qarashlarning yuzaga kelishiga turki bo'lishi mumkin. Yana bir jihat, arxiv hujjatlariha ma'lumotlarni aynan bayon qilib berish ham bu badiiy asar degan bahoni shakllantirmaydi. Ya'ni muallif "oltin meyor" qoidalari amalga qilmog'i lozim.

6. *Insonlar, tarixiy insonlar avlodlari bilan suhbat* (H.Qodiri, Zulfiya, Nodira Saidaxmadova). Tarixiy shaxslar, xususan, ijodkorlarning zamondoshlari, do'stlari, oila a'zolari bilan suhbatlar ham badiiy asarga muayyan material bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi ma'lumotlarda

subyektiv yondashuv, simpatiya kuchli bo'lishi mumkin, ammo ayni insonning shaxsiy fazilatlarini badiiy tasvirlashda ular ham ayricha estetik quvvat beradi.

7. *Realiya va unga doir kuzatishlar*. Masalan, "O'tkan kunlar" (A.Qodiri), "Yulduzli tunlar" (P.Qodirov) , "Jannati odamlar" (X.To'xtaboyev), "Qorako'z Majnun" (Said Ahmad) kabi qator asarlardagi urf-odatlar, milliy qadriyatlar bilan bog'liq tasvirlar. Asarga milliy kolorit baq'ishlashda bu boradagi kuzatishlar mohiyatan e'tiborga molik. To'y-tantana, a'za, turli milliy qadriyatlarni kuzatish, ulardag'i har bir amal va detalning funksiyasini tushunish haqqoniy tasvir yaratish omilidir.

"Haqiqiy yozuvchi bo'lmoq uchun turmushni har taraflama o'rganish, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo'lish kerak"[5], – deya ta'kidlagan Abdulla Qodiri ijodkor dunyoqarashining kengligi, tafakkur olamining boyligini kuzatuvchanlik qobiliyati bilan bog'laydi. Darhaqiqat, noyob badiiy topilmalar, favqulodda obrazli dialoglar, xarakterli badiiy detallar aynan sinchkovlik bilan kuzatishning hosilasidir. Umuman olganda, "yozuvchining shaxsiy tajribasi, biografiyasi "oltin fond" (A.Muxtor) bo'lib, u hayotda, shu jumladan, asarda ro'y berayotgan voqeа va hodisalarни tushuntiruvchi kalitdir"[6].

### XULOSA

Chinakam ijodkorni tirik ensiklopediyaga qiyoslash mumkin. Faqat bu ensiklopedik bilimlar alifbo sirasida emas, hissiy-emotsionallik bilan to'yintirilgan badiiy talqinlarda, alohida kompozitsiyalarda kitobxonlarga parselyativ taqdim etiladi. Mazkur jarayonda hayot haqiqati shaxsiy kuzatishlar asosida, tarixiy haqiqat esa mavjud manbalarni o'rganish natijasida tajassum topadi. Badiiy asar ko'r yillik kuzatishlar, o'rganishlar, hissiy-falsafiy anglamlarning sintezlashgan go'zal hosilasidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдусаматов Х. Тарих ва бадиий талқин. – Т.: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1995.; Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадиий тўқимага // Адабиётимизнинг биографияси. – Т.: Фафур Ғулом номидаги адаб. ва санъат нашр. 1973.; Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрода ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). – Т.: Янги нашр, 2018.; Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрода ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). Фил.фан.док... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.; Ҳамидов М. Ўзбек адабиётида тарихий ҳақиқат ва бадиий тўқима (Машраб образзи мисолида). Фил ф б-ча.фалсафа доктори.дисс. Фарғона 2021.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinci jild. –Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2023. – 321-bet.
3. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Т.: "Ўқитувчи", 1979. – Б. 122.
4. Рахимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – Б. 45
5. Абдулла Қодирий. Ижод машаққати. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 7.
6. Умурев Н. Бадиий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001, – Б. 20.